

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririy-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir
Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)
OTAJONOV S. (O'zbekiston)
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)
KARIMOV E. (O'zbekiston)
RASULOV R. (O'zbekiston)
ONARQULOV K. (O'zbekiston)
YULDASHEV G. (O'zbekiston)
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)
DADAYEV S. (O'zbekiston)
ASQAROV I. (O'zbekiston)
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)
ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)
YULDASHOV A. (O'zbekiston)
XOLIQOV S. (O'zbekiston)
MO'MINOV S. (O'zbekiston)
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)

ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)
SHUKUROV R. (O'zbekiston)
YULDASHEVA D. (O'zbekiston)
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)
KASIMOV A. (O'zbekiston)
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)
G'OFUROV A. (O'zbekiston)
ADHAMOV M. (O'zbekiston)
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)
USMONOV B. (O'zbekiston)
ASHIROV A. (O'zbekiston)
MAMATOV M. (O'zbekiston)
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)
XAKIMOV N. (O'zbekiston)
BARATOV M. (O'zbekiston)

Muharrir: Sheraliyeva J.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60
Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:

Qog'oz bichimi: - 60×84 1/8

Bosma tabog'i:

Ofset bosma: Ofset qog'oz.

Adadi: 10 nusxa

Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

Manzil: 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Farg'ona,
2022.

K.Kodirov	
O'zbekiston Respublikasida mahkumlarni ijtimoiy foydali mehnatga jalb qilish	118
B.Jumayev	
Gastronomik turizm tushunchasining paydo bo'lishi va uning tarixiy asoslari.....	122
U.Usarov	
Rossiya imperiyasi rasmiy amaldorlari va taftish komissiyalarining Turkistondagi yer-suv munosabatlariga doir faoliyatiga oid ba'zi mulohazalar.....	129
SH.Tosheva	
VIII – XII asrlarda O'rta Osiyo shaharlarida kasbiy o'zlikning o'ziga xos xususiyatlari	133
	ADABIYOTSHUNOSLIK
A.Sabirdinov	
Tuganmas ilhom manbai	138
Q.Yo'lchiyev	
Lirik janr haqida ba'zi mulohazalar	142
G.Mashrapova	
Safar semantikasi va genezisiga doir ayrim mulohazalar	148
SH.Jumanova	
Usmon Azim she'riyatida kuz motivi	151
E.Shevchenko	
O'zbek adabiyot sharhi: boshlanish davridan hozirgi kungacha	155
G.Nazarova	
Ingiliz hamda o'zbek adabiyotida mifologik obrazlarning mifologizatsiyasi va ularning o'ziga xosligi.....	161
D.Xusenova	
Lev Tolstoyning hayoti va ijodiy faoliyatida sharqning o'rni.....	165
	TILSHUNOSLIK
X.Maxsudova, SH.Shahobiddinova	
Эргонимларнинг лексик-семантик хусусиятлари	169
N.Achilova	
Nemis va o'zbek tillarida faunaga oid frazeologizmlar tasviri.....	173
Sh.Sultonova, O.Usmonov	
Diniy frazeologizmlarning ichki shakli dinamik hodisa sifatida	178
Z.Akbarova, G.Sodiqova	
Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ko'p ma'noli so'zlarni o'rgatishning psixofiziologik va psixolingvistik asoslari	182
I.Saydamatov	
Ingiliz va o'zbek tillarida frazeologik tizimlarning o'ziga xos xususiyatlari.....	186
Sh.Amonturdieva	
Diniy uslubni yuzaga keltiruvchi ekstralingvistik omillar	191
M.Batirxanova	
Somatik frazeologizmlarning tarjima masalalarida pragmatik funksiyalarining tadqiqi	195
N.Djalilova	
Nofilologik oliy o'quv yurtlarida talabalarni chet til o'qitish kommunikativ kompetensiyasi	199
A.Zinatullina	
O'zbek va fransuz tillarini tarjima qilishdagi qiyinchiliklar	203
	MATEMATIKA
A.O'rinov, M.Azizov	
Yuqori juft tartibli xususiy hosilali differensial tenglama uchun to'g'ri to'rtburchakda boshlang'ich-chegaraviy masala	207
K.Xalilov	
Singulyar koeffitsiyentli parabolo-giperbolik tenglama uchun integral shart va Bitsadze-Samarskiy sharti qatnashgan masalalar.....	225
T.Xasanov	
Davriy cheksiz zonali funksiyalar sinfida manbali yuklangan Korteveg-de Friz tenglamasiga qo'yilgan koshi masalasi.....	232

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA KO'P MA'NOLI SO'ZLARNI O'RGATISHNING PSIXOFIZIOLOGIK VA PSIXOLINGVISTIK ASOSLARI**ПСИХОФИЗИОЛОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОБУЧЕНИЮ МНОГОЗНАЧНЫМ СЛОВАМ УЧЕНИКАМ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ****PSYCHOPHYSIOLOGICAL AND PSYCHOLINGUISTIC FUNDAMENTALS OF TEACHING POLYSEMEUS WORDS TO PRIMARY SCHOOL STUDENTS****Akbarova Zuxro Akmaljonovna¹, Sodiqova Gulbahor G'ofurjon qizi²**

- ¹**Akbarova Zuxro Akmaljonovna** – Farg'ona davlat universiteti filologiya fanlari doktori, dotsent.
²**Sodiqova Gulbahor G'ofurjon qizi** – Farg'ona davlat universiteti boshlang'ich ta'lim uslubiyoti kafedrasida o'qituvchisi.

Annatsiya

Ushbu maqolada til hodisalarining imkoniyati haqida fikr bildirib, tilda polisemiyaning borligi tufayli insonlar bir so'z orqali turli xil narsa va hodisalarga nom bera olishi, boshlang'ich sinf o'quvchilariga polisementik lug'at bilan ishlashni o'rgatish o'quvchilar so'z boyligini sifat jihatdan yaxshilashga xizmat qilishi haqida atroflicha fikrlar keltirilgan. Maktabda boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tilini o'qitish jarayonida polisemiyaning murakkab jihatlarini bosqichma-bosqich o'rgatib borishni tashkil etadi. Ularga leksik polisemiya yordamida so'z manolarini farqlashni o'rgatibgina qolmay, balki o'quvchilar nutqini yangi so'z ma'nolari bilan boyitib borish kerakligi haqida fikrlar yoritib berilgan. Shuningdek boshlang'ich sinflarda ko'p manoli so'zlarning o'quvilar ongida shakllanishi haqida ko'p olimlarning fikrlari bilan uyg'unlashtirilgan.

Аннотация

В данной статье рассматривается возможность языковых явлений, существование полисемии в языке, способность людей называть разные вещи и события одним словом, обучение учащихся начальных классов работе с полисемантической лексикой позволит улучшить качество словарного запаса учащихся. Рассматривается организация поэтапного обучения сложным аспектам полисемии в процессе обучения родному языку учеников младших классов в школе. В статье также описывается умение не только различать значения слов с помощью лексической полисемии, но и прививать мысль о том, что речь учащихся должна обогащаться новыми значениями слов; описывается взгляды многих ученых на формирование многозначности слов в сознании учащихся начальных классов.

Abstract

This article discusses the possibility of linguistic phenomena, the existence of polysemy in the language, the ability of people to call different things and events in one word, teaching primary school students to work with polysemantic vocabulary will improve the quality of students' vocabulary. The organization of stage-by-stage teaching of complex aspects of polysemy in the process of teaching the native language of primary school students in school is considered. The article also describes the ability not only to distinguish the meanings of words with the help of lexical polysemy, but also to instill the idea that students' speech should be enriched with new meanings of words; describes the views of many scientists on the formation of polysemy of words in the minds of primary school students.

Kalit so'zlar: Til hodisalari, leksema, polisemiya, muloqot, tadqiqot, eksperiment, tashqi nutq, psixolingvistik, boshlang'ich ta'lim.

Ключевые слова: языковые явления, лексема, полисемия, общение, исследование, эксперимент, внешняя речь, психолингвистика, начальное образование.

Key words: linguistic phenomena, lexeme, polysemy, communication, research, experiment, external speech, psycholinguistics, primary education.

KIRISH

Ma'lumki, o'quvchilarga boshlang'ich ta'lim jarayonida o'rganiladigan o'quv fanlarini samarali o'zlashtirishlari uchun, o'zaro ijtimoiy munosabatlarga kirishish va mustaqil tafakkur yuritish hamda uni ifoda qilishda tilning yaxlit hodisa sifatidagi mohiyatini anglash muhim o'rin tutadi. Boshlang'ich ta'limda tilning turli tomonlarini o'zaro bog'liq holda o'rganish tamoyili esa ta'limning keyingi bosqichlarida o'quv materiallari mazmuni va hajmini bilim sifatida o'zlashtirishni takomillashtiradi.

Maktabda boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tilini o'qitish jarayonida polisemiyaning murakkab jihatlarini bosqichma-bosqich o'rgatib borishni tashkil etish ularga leksik polisemiya

TILSHUNOSLIK

yordamida soʻz maʼnolarini farqlashni oʻrgatibgina qolmay, balki oʻquvchilar nutqini yangi soʻz maʼnolari bilan boyitadi.

Polisemiya yuqorida taʼkidlanganidek inson tafakkuri va fikrlash jarayoni bilan bogʻliq hodisa sifatida turli halqlarning tillarida oʻsha millatga xos xarakter-xususiyatni va mentallikni aks ettiruvchi vosita hamdir. Aniqroq qilib aytganda polisemiya barcha tillarda milliy oʻziga xoslik bilan namoyon boʻladi. Chunki maʼlum bir halqqa tegishli polisemantik soʻzlarni oʻsha halq tilining taraqqiyoti, fikrlash doirasidan xoli tarzda oʻrganib boʻlmaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tilda semasiologiyaning markaziy vazifalaridan biri boʻlgan polisemiya va uning idrok etilishi, soʻz maʼnolarining shakllanishi hamda rivojlanishi bilan bogʻliq koʻplab nazariy va eksperimental psixologik tadqiqotlar olib borilgan. Bolalar nutqida soʻz maʼnolarini tushunishni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari boʻyicha taniqli psixolingvist olimlar Dj. Englin, S. Ervin, D.Entsvil, L.S. Vgotskiy, N.J Shvachkin, A.N. Leontyev, A.R1 Luriyep, A.V. Zaporajs, P.Ya. Galperin, D.B. Elkoninlar tomonidan tadqiqotlar va eksperimentlar olib borilgan. Mazkur olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda bolalarning nutqiga xos boʻlgan turli muammolarni bartaraf etish, soʻz maʼnosini idrok etishni shakllantirish bilan bogʻliq yondoshuvlarni oʻz ichiga olgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Psixologlarning taʼkidlashicha, bolalar qoʻllaydigan soʻzlar kattalarniki kabi bir xil maʼno hajmiga ega emas. "...bolaning soʻzlari kattalarning soʻzlari bilan predmetga aloqadorligi bilan mos keladi, yaʼni ular bir xil predmetlarga ishora qiladi, bir xil hodisalar doirasiga kiradi, lekin ular oʻz mazmuniga koʻra bir-biriga toʻgʻri kelmaydi."

Kattalar nutqida soʻz maʼnosi umumlashtirilgan holda qoʻllanilsa, bolalar nutqida u aniq maʼnoga ega boʻladi. Bola oʻz ona tilisini, undagi soʻzlarni idrok etish bosqichining va rivojlanishining qaysi bosqichida boʻlishidan qatʼiy nazar yaxlit holda oʻzlashtiradi. L.S Vgotskiyning fikricha, maʼnosiz soʻz soʻz emas, balki tovushdir. Binobarin, nutqni idrok etish tovush va maʼno birligidan iborat boʻlgan lisoniy materialni oʻzlashtirilgan tilda idrok etishdagina amalga oshadi.

Maʼlumki, nutqning asosiy vazifalaridan biri, fikrni shakllantirish va uni ifodalashdir. L.S Vgotskiyning fikricha "Tashqi nutq vosita sifatida, fikrlarni soʻzlarga aylantirish, uni moddiylashtirish jarayonidir. Binobarin, nutqning psixologik asosini tafakkur tashkil etadi, uning rivojlanishining sharti esa fikrini boyitishdir. Rivojlangan tushunchalar tizimi asosida, aqliy harakatlar tizimini oʻzlashtirish asosidagina nutqni muvaffaqiyatli rivojlantirish mumkin."

Shuning uchun ham boshlangʻich sinf oʻquvchilari nutqini rivojlantirish metodikasida materialni tayyorlash, uni qayta ishlash va nutqiy faoliyat koʻlamini kengaytiruvchi soʻz tanlash va soʻz maʼnolarini sharhlash kabi mantiqiy amallarni bajarishga alohida eʼtibor beriladi. Boshlangʻich sinf oʻquvchilarini nutqiy faoliyatga oʻrgatishda har bir til hodisasining oʻz oʻrni va vazifasi bor.

N.I. Jinkin ham til hodisalarining imkoniyati haqida fikr bildirib, "Tilda polisemiyaning borligi tufayli insonlar bir soʻz orqali turli xil narsa va hodisalarga nom bera oladilar hamda ularga munosabat ifodalash imkoniyatiga ham ega boʻladilar" deya taʼkidlaydi.

Nutqiy faoliyat psixologlar tomonidan mavhum tushuncha sifatida emas, balki insonlar umumiy faoliyatining atrofda real voqelik bilan faol munosabatda boʻlishga qaratilgan holda yaʼni bola rivojlanishining maʼlum bir bosqichida yetakchiga aylanadigan faoliyat sifatida koʻrib chiqilmoqda.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilarining tafakkurida polisemiya hodisasini adekvat idrok etish va nutqiy koʻnikma va malakalarni shakllantirishga imkoniyat yaratadigan tizimni, ularning yoshi bilan bogʻliq psixologik va psixofiziologik xususiyatlarni, oʻquv jarayoni bilan bogʻliq ruhiy hodisalarni bilmay turib polisemiya hodisasini oʻrgatishning samarali metodik tizimini ishlab chiqish mumkin emas.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilariga leksik polisemiyaning oʻrgatishda, avvalo, bolalarning soʻz boyligining rivojlanish darajasini, polisemantik soʻzlarni oʻzlashtirish xususiyatlarini va koʻp maʼnoli leksikani oʻrganishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etishning samaradorligiga yordam beradigan sharoitlarni hisobga olish kerak. Boshlangʻich sinf oʻquvchilari lugʻatining oʻziga xos xususiyati shundaki, bolalar uchun ular bilgan soʻzlarning ortida har doim ham ongli tushunish mavjud emas. V.I. Vodovozov "Bolalar soʻzni bilishi mumkin, lekin u ifodalagan tushunchani bilmasligi mumkin, bu

ko'pincha ularda eshitish, xotira orqali; ular predmetni bilishlari mumkin uning nomini esa bilmasliklari mumkin yoki hech bo'lmaganda so'zni eslolmaydilar; nihoyat ular predmetni ham so'zni ham bilishlari mumkin, lekin ularni noto'g'ri bog'lashlari va ular o'rtasidagi munosabatni aniq tasavvur qilolmaydilar" deb hisoblaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari lug'atida aniq va mavhum ma'noli so'zlarning nisbati bir xil emas. Kichik yoshdagi maktab o'quvchilari uchun so'zni idrok etish va yodlash uni anglashning boshlanishi bo'lib, u keyingi yosh bosqichlarida ham o'ziga xos darajalarda davom etadi. Olimlarning fikricha, yetti yoshli bolaning ona tilida kundalik muloqot qilish uchun yetarli so'z boyligi bo'lmaydi. 7-8 yoshdan boshlab bolalar so'zni leksik tizimning elementi sifatida o'zlashtira oladilar. Shu tarzda o'quvchilarda lingvistik kompetensiyani shakllantirish boshlanadi. Tilning lug'at boyligi bilan faol ishlash bolalarning tafakkurini rivojlantirib, olam to'g'risidagi bilimlarini so'z va uning ma'nolari yordamida boyitadi. Bu borada D.B.Elkonin so'zning lug'aviy ma'nosi o'quvchilar tomonidan tahlil qilinib, uning ma'nosi ong predmetiga aylangandagina, ya'ni uning til tashuvchisida bo'lgan mavhum tafaakurni umumlantirib shakllantirishning muhim sharti deb hisoblaydi. [213].

Kichik yoshdagi bolalar nutqini kuzatgan tadqiqotchilar bolalarning nutq faoliyati faol ijodiy xususiyatga ega ekanligini ta'kidlaydilar. Bu esa yosh davrlariga mos tarzda til birliklarining o'zaro aloqasini, munosabatini, tildagi mavjud qoliplarni faol izlash jarayonidir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari tomonidan leksik polisemiyaning o'zlashtirishning psixologik va psixofiziologik xususiyatlarini o'rganar ekanmiz, bolalar nutqining semantik rivojlanishining ba'zi jihatlarini, o'quvchilarning so'z ma'nolarini idrok etishi bilan bog'liq murakkabliklarni ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Ona tilida mavjud ko'p ma'noli so'zlarning ma'nosini o'zlashtirish, aniqdan-mavhumgacha uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, bu jarayonda bolalar lug'atidagi so'zlarning semantik tuzilishi bola rivojlanishining turli bosqichlarida o'zgarishsiz qolmaydi. Ya'ni bolalarning psixofiziologik rivojlanishlari barobarida ularning tafakkuri ham rifoqlanib, so'z ma'nolaridagi umumiylik xususiylikka qarab boradi. So'zlarni bolalar semantik tuzulishini har bir yosh bosqichida qayta ko'rib chiqadilar. Shu tariqa o'quvchilar so'zlarning ma'nolarini rivojlantirib, lug'ati zahirasini boyitib boradi. Har qanday so'zning ma'nosi har qanday yoshdagi bolalar uchun umumiydir. Bola biror bir yangi so'zni birinchi marta ma'lum bir ma'no bilan bog'liq holda o'zlashtirgan paytda u so'z ma'nosining rivojlanishi bola uchun to'xtab qolmaydi, balki boshlanadi. U dastlab eng elementar ma'noni anglagan bo'lsa, so'z ma'nosi kengayib borar ekan so'zning keyingi ma'nolari bola tafakkurini rivojlantirib, uning olam lisoniy manzarasini til imkoniyatlari yordamida boyitib boradi. Bu jarayon bolalar ongida asl va ko'chma ma'noni farqlash, ko'p ma'noli so'zlarning nutqdagi ahamiyatini tushunish bilan yakunlanadi.

Shu bilan birga boshlang'ich sinf o'quvchilariga ko'p ma'noli so'zlarning o'ziga xos xususiyatga ega ekanligini o'rgatish ona tili taraqqiyoti bilan, bola mansub halq madaniyati va yozuvi an'analarga o'xshash yana qator prinsiplarga asoslanadi. Shunday bo'lishga qaramay, boshlang'ich sinf o'quvchilariga leksik polisemiyaning barcha murakkabliklarini soddalashtirgan holda nutqda qo'llashlari va tushunishlari uchun ularda leksikografik kompetensiyani shakllantirish kerak. Lekin boshlang'ich sinf o'quvchisi ko'p ma'noli so'z semantikasini o'zlashtira olishi uchun ona tilining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishi zarur bo'ladi.

XULOSA

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar o'zbek adabiy tilining me'yorlariga muvofiq tarzda polisemantik so'zlarning semantik maydonidan foydalanish ko'nikmalarini o'rganishlari kerak. Boshlang'ich sinflarda olib boriladigan ona tili daralarida bunday ko'nikma va bilimlar shakllantirilishi, balki ko'p ma'noli so'zlarga nutq faoliyatda ongli munosabatda bo'lish qobiliyatiga ham ega bo'lishlari kerak. Psixolog, pedagog, psixolingvistlar va o'qituvchilarning amaliyotdagi tajribalari shuni ko'rsatadiki, kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining aksariyati ko'p ma'noli so'zlarni tushunish va ma'nolarni o'zlashtirgan holda nutq vaziyatiga mos tarzda qo'llashda qator qiyinchiliklarga duch keladilar, hattoki ba'zi o'quvchilar so'zning bosh va hosila ma'nolari o'rtasidagi farqni sezmaydilar. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, bolalar ko'p ma'noli leksikani o'zlashtirayotganda bola uchun notanish bo'lgan olam lisoniy manzarasini ona tili yordamida shaxsiy tajriba orqali umumlantirishga urinadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Выготский Л.С. Умственное развитие детей в процессе обучения: Сб статей. -М.-Л.: Учпедгиз, 1935. - С. 98-99. (Vygotsky L.S. Mental development of children in the learning process: Sat articles.
2. Выготский Л.С. Избранные психологические исследования // Мышление и речь. - М.: АПН РСФСР, 1956. - 518 с. (Vygotsky L.S. Selected psychological studies // Myshlenie and speech.
3. Жинкин Н.И. Исследование внутренней речи // Известия АПН РСФСР:-М., 1960. - С . 46-75, 361 (Zhinkin N.I. The study of inner speech // Izvestiya APN RSFSR:
4. Рубинштейн С.Л. Проблемы общей психологии. - М.: Педагогика, 1976.-С. 360 (Rubinshtein S.L. Problems of general psychology.
5. Водовозов В.И. Избранные педагогические сочинения / Под ред.В.Я. Смирнова. - М.: Изд-во АПН РСФСР, 1958. – 632с . Rubinstein S.L. Problems of general psychology.
6. Выготский Л.С. Избранные психологические исследования // Мышление и речь. - М.: АПН РСФСР, 1956. - 518 с. Vygotsky L.S. Selected psychological studies // Thinking and speech.
7. Выготский Л.С. Собрание сочинений: В 6 т. Т. 2 // Проблемы общей психологии. -М.: Педагогика, 1982. - 504 с. (Vygotsky L.S. Collected Works: In 6 vols. Vol. 2 // Problems of General Psychology.
8. Эльконин Д.Б. Мышление младшего школьника // Очерки психологии детей младшего школьного возраста / Под ред. А.Н. Леонтьева и Л.И. Божовича. - М.: АПН РСФСР, 1950. (Elkonin D.B. Thinking of a junior schoolchild // Essays on the psychology of children of primary school age / Ed. A.N. Leontiev and L.I. Bozhovich.
9. Выготский Л.С. Избранные психологические исследования // Мышление и речь. - М.: АПН РСФСР, 1956. - 518 с. Гальперин П.Я. К исследованию интеллектуального развития ребенка //Вопросы психологии. - М., 1969. № 1. - С. 15-25. Гальперин П.Я. Актуальные проблемы возрастной психологии. М.: Изд-во МГУ, 1978. - 118 с. Леонтьев А.А. Психолингвистический аспект языкового значения //Принципы и методы семантических исследований. - М., 1976. - С. 55-62. Леонтьев А.А. Формы существования* значения // Психолингвистические проблемы семантики. - М., 1983. - С. 5-20. Лурия А.Р. Основные проблемы нейролингвистики. - М.: Изд-во МГУ, 1975.-253 с. МГУ, 1975.-253 с. Протасова Е.Ю. К проблеме развития значения в детской речи // Психолингвистические исследования развития речи и обучения второму языку: Сборник статей. - М., 1980. - С. 33-42. Рогожникова Т.М. Развитие значения полисемантических слов у детей разных возрастных групп // Материалы VIII Всесоюзного симпозиума по психолингвистике и теории коммуникации: Тезисы докладов - М., 1985.-С. 185-186. Уфимцева Н.В. Опыт экспериментального исследования процесса формирования значения // Психолингвистические исследования в области лексики и фонетики: межвузовский тематический сборник. - Калинин, 1981. - С. 132-144. Харченко В.К., Стернин И.А. К проблеме развития лексических значений слова // Семантические процессы в системе языка: Межвузовский сборник научных трудов. - Воронеж, 1984. - С. 9-18. Эльконин Д.Б. Психологические исследования усвоения знаний в начальной школе // Советская педагогика. - М., 1961. № 9. - С. 22-32. Anglin J. The growth of word meaning.-Cambridge, 1970. Ervin S. Changes with age in verbal determinants of word association. American Journal of Psychology, 1961. - Vol. 74. ntwise D.R. Word association of young children. - Baltimore, 1996.
10. Vygotsky L.S. Selected psychological studies // Thinking and speech. - М.: АПН РСФСР, 1956. - 518 с. Galperin P.Ya. To the study of the intellectual development of the child // Questions of psychology. - М., 1969. No. 1. - S. 15-25. Galperin P.Ya. Actual problems of developmental psychology. М.: Publishing House of Moscow State University, 1978. - 118 p. Leontiev A.A. Psycholinguistic aspect of linguistic meaning //Principles and methods of semantic research. - М., 1976. - pp. 55-62. Leontiev A.A. Forms of existence* of meaning // Psycholinguistic problems of semantics. - М., 1983. - S. 5-20. Luria A.R. Basic problems of neurolinguistics. - М.: Publishing House of Moscow State University, 1975.-253 p. MGU, 1975.-253 p. Protasova E.Yu. On the problem of the development of meaning in children's speech // Psycholinguistic studies of the development of speech and teaching a second language: Collection of articles. - М., 1980. - S. 33-42. Rogozhnikova T.M. Development of the meaning of polysemantic words in children of different age groups // Proceedings of the VIII All-Union Symposium on Psycholinguistics and Communication Theory: Abstracts of Reports - М., 1985.-S. 185-186. Ufimtseva N.V. Experience of experimental research of the process of meaning formation // Psycholinguistic research in the field of vocabulary and phonetics: interuniversity thematic collection. - Kalinin, 1981. - S. 132-144. Kharchenko V.K., Sternin I.A. On the problem of the development of lexical meanings of the word // Semantic processes in the language system: Interuniversity collection of scientific papers. - Voronezh, 1984. - S. 9-18. Elkonin D.B. Psychological studies of the assimilation of knowledge in elementary school // Soviet Pedagogy. - М., 1961. No. 9. - S. 22-32. Anglin J. The growth of word meaning.-Cambridge, 1970. Ervin S. Changes with age in verbal determinants of word association. American Journal of Psychology, 1961. - Vol. 74. ntwise D.R. Word association of young children. - Baltimore, 1996.